

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA
INSTITUTI**

«AXBOROT TEXNOLOGIYALARI» kafedrası



«KOMPYUTER TARMOQLARI VA INTERNET»

**FANIDAN LABORATORIYA ISHLARI VA ULARNI
BAJARISH UCHUN**

METODIK KO'RSATMA

Toshkent-2007

Ushbu metodik ko'rsatma institut ilmiy –uslubiy kengashining 2007 yil
__7-iyul__ bo'lib o'tgan __9 -__ sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop
etishga tavsiya etildi.

Metodik ko'rsatmada TIMIning «Suv xo'jaligi va melioratsiya»
fakultetining «Avtomatlashtirish va boshqaruv» (suv xo'jaligida) yo'nalishi
bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun «Kompyuter tarmoqlari va Internet»
fanidan laboratoriya ishlari va ularni bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar
keltirilgan.

Tuzuvchilar:

X.X.Karimova, katta o'qituvchi
D.A.Xodjayev, assistent

Taqrizchilar:

Sh.Nazirov, Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti «Dasturlash texnologiyalari»
kafedrasi mudiri, f.-m.f.d., professor

S.S.Mirzaev, TIMI dotsenti

KIRISH

Jamiyatning rivojlanishi yangi-yangi kashfiyotlarning yaratilishiga sabab bo'lib kelmoqda. So'zsiz, kompyuterning yaratilishi XX asrning buyuk kashfiyotlardan biri. Jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan jadal o'zgarishlar uning bir qismi bo'lgan Informatika va axborot texnologiyalari sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu ta'sir shunchalik kuchliki, axborot texnologiyalarida bo'layotgan o'zgarishlar yillar ichida emas, balki oylar ichida o'zgarib, boyib bormoqda. Bu o'zgarishlar turli soha mutaxassislari oladigan bilimlar, informatsion texnologiyalarni qo'llash bilan tobora bog'lanib bormoqda.

Ushbu metodik ko'rsatma hozirda dolzarb hisoblangan kompyuter tarmoqlari haqida umumiy tushunchalar, lokal va global kompyuter tarmoqlarida ishlash, hamda tez sur'at bilan rivojlanayotgan Internet xizmati va uning bir qismi - elektron pochtdan foydalanishga bag'ishlangan bo'lib, unda internetning ishlashi bilan bog'liq bo'lgan qaydnoma - protokollar, ma'lumotlarni uzatish, qidirish, kommunikatsiya xizmatlaridan hamda telekonferentsiyalardan foydalanishga oid laboratoriya ishlari va ularni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, Internet Explorer brauzerlariga oid materiallar berilgan.

Bu metodik ko'rsatma oliy o'quv yurtlari talabalari, Internet va elektron pochta xizmatidan foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan.

1- LABORATORIYA ISHI

Mavzu: Kompyuter tarmoqlari. Lokal kompyuter tarmog'i

Kerakli texnik vositalar: Pentium-4 shaxsiy kompyuteri.

Kerakli dasturiy ta'minotlar: MS Word, «Setevoye okrujenie» dasturi.

Ishning maqsadi: Talabalarni kompyuter tarmoqlari bilan tanishtirish, ularni lokal tarmoqda ishlashni o'rgatish.

Topshiriqlar:

1. S diskda papka yarating.
2. O'zingiz to'g'ringizda ma'lumot kiriting.
3. Lokal tarmoq orkali «Informatika»-«Shared»- «KTI» papkasida saklang.
4. Keyingi dars uchun topshiriqlarni lokal tarmoq orqali, «Informatika»-«Shared»- «KTI» papkasidan oling.
5. Laboratoriya ishini rasmiylashtiring.

Nazariy qism

Kompyuter (hisoblash) tarmog'i — bu, aloqa kanallari orqali yagona tizimga bog'langan kompyuter va terminallar majmuasidir.

Tarmoqda axborotni ishlab chiqaruvchi va undan foydalanuvchi ob'ektlar **tarmoq ob'ektlari** deyiladi. Tarmoq ob'ektlari alohida kompyuter, kompyuterlar kompleksi, ishlab chiqarish robotlari va boshqalar bo'lishi mumkin.



Axborotlarni territorial joylashuviga ko'ra kompyuter tarmoqlarini uchta asosiy sinfga bo'lish mumkin: *global tarmoqlar*, *regional (mintaqaviy) tarmoqlar*, *lokal (maxalliy) tarmoqlar*.

Lokal (maxalliy) tarmoq kichik bir hududda joylashgan abonentlarni birlashtiradi. Bunday tarmoq odatda aniq bir joyga bog'langan bo'ladi. Masalan,

biror korxona yoki tashkilotga. Mahalliy tarmoqning uzunligini 2—3 km bilan cheklash mumkin.

Ishni bajarish tartiblari:

1. Fayl yarating.
2. Faylga o'zingiz to'g'ringizda to'liq ma'lumot kiriting.
3. Lokal tarmoqqa quyidagi tartibda «Moye setevoye okrujeniyeye»-«Vsya set»- «Set Microcoft Windows»- «Tiim»-«Informatika»-«Shared»-«KTI» ga kiring.
4. «Informatika»-«Shared»-«KTI» papkasida o'z faylingizni joylashtiring.
5. Keyingi dars uchun topshiriqlarni lokal tarmoq orqali, «Informatika»-«Shared»-«KTI» papkasidan oling va bajaring.
6. Laboratoriya ishini rasmiylashtiring.

Nazorat savollari

1. Kompyuter tarmoqlari nima?
2. Qanday tarmoq turlarini bilasiz?
3. Lokal tarmog'i nima ?
4. Lokal tarmog'ining qanday topologiyzlari mavjud?
5. Server nima?
6. Kontsentrator nima?

2-LABORATORIYA ISHI

Mavzu: Internet Explorer brauzer dasturida ishlash

Kerakli texnik vositalar: Pentium-4 shaxsiy kompyuteri.

Kerakli dasturiy vositalar: Internet Explorer brauzer dasturi.

Ishning maqsadi: Talabalarga Internet Explorer brauzer dasturidan foydalanishni o'rgatish.

Topshiriq:

1. C diskda o'z papkangizni yarating.

2. Internet Explorer dasturini ishga tushiring.
3. Internet qidiruv tizimiga kiring.
4. O'zbekistonda suv xo'jaligi holati va suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimlarini qo'llashga oid ma'lumotlar yig'ing.
6. Ma'lumotlardan nusxa oling va o'z papkangizga ko'chiring.
7. Laboratoriya ishni rasmiylashtiring.

Nazariy qism

Internet - bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuterlar tarmog'idir. Uning nomi «tarmoqlararo» degan ma'noni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarini birlashtiruvchi informatsion tizim bo'lib, o'zining alohida axborot maydoniga ega bo'lgan virtual to'plamdan iborat bo'ladi.

Internetga ishlash uchun provayder tashkilotlarning xizmati alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda bir qancha provayder tashkilotlar mavjud. Bularga: **Uzpak, Sarkor, Uznet, Buston** va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin. Ularning Internet tizimida sahifa manzillari mavjud. Misol uchun:

www.uzpak.uz,

www.sarkor.uz,

www.tps.uz,

www.uzsci.net,

www.intal.uz va hokazo.

Mana shu provayder tashkilotlar internetda ishlash imkoniyatini to'liq yaratib beradi. Ular internetda ishlash qulayligini ta'minlaydigan quyidagi parametrlarni o'z zimmasiga oladi:

- *modem orqali telefon qila olish qobiliyati;*
- *aloqa tezligi va sifati;*
- *internetga bog'lanish va ma'lumotlarni uzatish tezligi.*

Bugungi kunda internetning WWW xizmati tobora rivojlanib, mukammal ma'lumotlar manbaiga aylanib bormoqda. Uning yordamida istalgan sohada, istalgan mavzuda va istalgan vaqtda ma'lumotlarni qidirib topish, ulardan foydalanish, zarur bo'lganda ulardan nusxalar olish mumkin. Internetning ushbu xizmat turidan foydalanish uchun avvalo mijoz komputerida xuddi shunday imkoniyatlarni yaratib beruvchi maxsus dasturiy ta'minot bo'lishi zarur. Bunday dasturlar ta'minotini odatda **brouzerlar** (browsers) deb atashadi. Dunyoda eng ko'p foydalaniladigan brouzerlardan biri - bu **Internet Explorer** hisoblanadi. Internet Explorer dasturidan odatda Windows operatsion tizimida ishlovchi mijozlar ko'proq foydalanishadi.

Ishni bajarish tartibi:

1. Internet Explorer dasturini ishga tushirish boshqa amaliy dasturlar singari asosiy menyu yordamida (1-rasm) yoki ish stolida joylashgan "Internet Explorer" yo'rli'g'iga (agar mavjud bo'lsa) murojaat qilish orqali amalga oshiriladi.



1-rasm. Internet Explorer dasturini asosiy menyu orqali ishga tushirish

Natijada Internet Explorer dasturining ishchi oynasi namoyon bo'ladi.


2. Internet qidiruv tizimiga kirish.

Internet bilan ilk bora ishlayotgan foydalanuvchilar dastlab internetdagi qidiruv tizimlaridan foydalanib, kerakli ma'lumotlarga tez kirib borishlari mumkin. Foydalanuvchi biror qidiruv tizimiga kirish uchun mazkur oynaning **Adres:** deb nomlangan "Ro'yxatlar satri"ga murojaat qilishi zarur. Bu qanday amalga oshiriladi?

Masalan, biz Rambler qidiruv tizimida ishlamoqchi bo'lsak, ro'yxatlar satri'ga


<http://www.rambler.ru>

ko'rinishda qidiruv tizimining nomini klaviatura yordamida kiritib, [Enter]ni bosishimiz kifoya (2-rasm).



2-rasm. Rambler qidiruv tizimiga kirish

Natijada ekranda Rambler qidiruv tizimining sahifasi nomayon bo'ladi (3-rasm).



3-rasm. Rambler qidiruv serverining ko'rinishi

Sahifada bugungi kunga qadar to'plangan turli sohaga oid ma'lumotlar bilan tanishish mumkin. Internetning bunday qidiruv tizimlari yordamida istalgan ma'lumotni tez va qisqa vaqt ichida topish mumkin. Faqat buning uchun sizni qiziqtirgan soha nomini tanlashingiz talab qilinadi. Masalan, sohalar bo'limidan sichqoncha yordamida **Nauka** bandini tanlasak, sport turlari va ularga oid yangiliklar sahifasi nomayon bo'ladi. Bundan kerakli **Informatsionniye texnologii** turini tanlash mumkin.


3.Internet sahifasida tanlangan biror ob'ektni saqlab qo'yish uchun **[Fayl]** menyusiga kirib, undan **[Sohranit kak]** bandini tanlaymiz. Hosil bo'lgan **“Sohraneniye dokumenta”** nomli muloqot oynasining **“Imya fayla:”** yo'lagiga yangi fayl nomini kiritib, shu oynaning quyi qismida joylashgan **“Coxranit”** tugmasini bosamiz. Lekin bu usul katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlaganda biroz

qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bunday holda maxsus FlashGet yoki ReGet dasturlaridan foydalangan ma'qul (4 – rasm).

ReGet dasturining ishlash holati ikki xil: soddalashtirilgan va kengaytirilgan. Soddalashtirilgan holat imkoniyatlari kamroq bo'lsa-da, u dastur bilan dastlab ishlayotgan foydalanuvchilar uchun ancha qulay. Kengaytirilgan holat esa kengroq imkoniyatlarga ega bo'lib, bu imkoniyatlar dastur hujjatida odatda qizil rang bilan ajratilgan bo'ladi. Dasturni ishga tushirish uchun uning quyidagi bosh sahifasi manzillalaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

www.reget.net – Regetning AQShdagi sahifasi;

www.reget.com – Regetning Rossiyadagi sahifasi.



4 –rasm. ReGet dasturi oynasining ko'rinishi.

Nazorat savollari:

1. Brauzer dasturlarni vazifalari?
2. Qanday brauzer dasturlarni bilasiz?
3. Internet Explorer brauzer dasturining ekran elementlari?
4. Asosiy menyu buyruqlari, ularning vazifalari?
5. Vositalar panelini o'rnatish, vositalardan foydalanish?
6. Adres qatori nima, uning vazifasi?

3 – LABORATORIYA ISHI

Mavzu: Internetda qidiruv tizimlaridan foydalanish

Kerakli texnik vositalar: Pentium-4 shaxsiy kompyuteri.

Kerakli dasturiy vositalar: Internet Explorer brauzer dasturi.

Ishning maqsadi: Talabalarga Internet Explorer brauzer dasturida qidiruv tizimlaridan foydalanishni o'rgatish.

Topshiriqlar:

1. Internet Explorer dasturini ishga tushiring.
2. Variantingizga oid Internet qidiruv tizimiga kiring.

Variantlar:

a) www.google.uz, www.naytov.com (O'zbekistonda joylashgan qidiruv tizimlari);

b) www.rambler.ru,

c) www.aport.ru,

d) www.yandex.ru,

f) www.mail.ru, (Rossiyada joylashgan qidiruv tizimlari);

h) www.altavista.com,

i) www.yahoo.com (AQShda joylashgan qidiruv tizimlari)

3. «Avtomatlashtirish va boshqaruvda axborot texnologiyalarni qo'llash» mavzusi ga oid ma'lumot izlang.

4. Ma'lumotlardan nusxa oling va o'z papkangizga ko'chiring.

5. Laboratoriya ishini rasmiylashtiring.

Nazariy qism

WWW (Word Wide Web – “jahon o'rgimchak to'ri”) – internetning eng ommalashgan xizmat turlaridan biri sanalib, u butun dunyo multimedia hujjatlarini

gipermatn yordamida bog'laydi. Multimedia hujjatlari deganda oddiy matn, grafika, audio tovush, video tasvir va animatsiya birligida tayyorlangan elektron hujjatlar tushuniladi. Animatsiya – bu ob'ektlarning fazoviy harakatidir. Gipermatn deganda foydalanuvchiga matnning zarur bo'lgan joyida boshqa hujjatlar bilan tez aloqa bog'lash imkonini beruvchi matnli hujjat tushuniladi. WWWda gipermatnli hujjatlarni yaratish va formatlash uchun **HTML** (Hyper Text Markup Language –“gipermatnlarni belgilash tili”) deb ataluvchi maxsus dasturlash tilidan foydalaniladi. HTML formatida tayyorlangan har qanday elektron hujjat *HTML hujjat*, *Web hujjat* yoki *Web sahifa* deb atalishi mumkin. Agar elektron hujjatni tayyorlash haqida gap borsa, u holda bu hujjat **HTML-hujjat** deb ataladi, ushbu elektron hujjatni internetda e'lon qilish yoki tarqatish haqida gap borsa, u holda bu hujjat **Web-hujjat** deb ataladi. Bordinyu, gap ushbu hujjatdan foydalanish haqida boradigan bo'lsa, u holda bu hujjat **Web sahifa** deb nomlanadi. Bitta muallif yoki WWWga tegishli bo'lgan bir guruh o'zaro “giperbog'lanishlar” bilan aloqador bo'lgan Web sahifalar majmuasiga **Web uzal** (tugun) yoki **sayt** deb ataladi.

3) library.wustl.edu – Vashington universiteti virtual kutubxonasining Web sayti. Bunda **edu** kengaytmasi kutubxonaning ta'lim muassasiga tegishli ekanligini bildiradi.

Shunday qilib, biz Internetda yuqoridagi kabi turli sahifa manzillari orqali istalgan soha bo'yicha kerakli ma'lumotlarni olishimiz mumkin ekan. Ammo biz o'zimizga kerakli barcha bunday sahifa manzillarini bilavermaymiz yoki eslab qolish imkoniyatiga ega emasmiz. Bu borada bizga ma'lumotlarni topishning qulay usullarini taqdim etuvchi internetning maxsus **qidiruv tizimlari** yordamga keladi. Bunobarin, quyida Internetda eng ko'p foydalaniladigan qidiruv tizimlaridan ba'zilarining nomlarini misol tariqasida keltiramiz:

www.google.uz, www.naytov.com (O'zbekistonda joylashgan qidiruv tizimlari);

www.rambler.ru, www.aport.ru, www.yandex.ru, www.mail.ru, (Rossiyada joylashgan qidiruv tizimlari);

www.altavista.com, www.yahoo.com (AQShda joylashgan qidiruv tizimlari) va boshqalar.

Ishni bajarish tartibi:

1. Internet Explorer dasturini ishga tushirish boshqa amaliy dasturlar singari asosiy menyu yordamida (1-rasm) yoki ish stolida joylashgan “Internet Explorer” yo’rlig’iga (agar mavjud bo’lsa) murojaat qilish orqali amalga oshiriladi.




1-rasm. Internet Explorer dasturini asosiy menyu orqali ishga tushirish

Natijada Internet Explorer dasturining ishchi oynasi hosil bo’ladi.


2. Internet bilan ilk bora ishlayotgan foydalanuvchilar dastlab internetdagi qidiruv tizimlaridan foydalanib, kerakli ma’lumotlarga tez kirib borishlari mumkin. Foydalanuvchi biror qidiruv tizimiga kirish uchun mazkur oynaning **Adres:** deb nomlangan “Ro’yxatlar satri”ga murojaat qilishi zarur. Bu qanday amalga oshiriladi?

Masalan, biz Rambler qidiruv tizimida ishlamoqchi bo’lsak, ro’yxatlar satriga <http://www.rambler.ru> ko’rinishda qidiruv tizimining nomini klaviatura yordamida kiritib, [Enter]ni bosishimiz kifoya (2-rasm).



2-rasm. Rambler qidiruv tizimiga kirish

Natijada ekranda Rambler qidiruv tizimining sahifasi nomayon bo’ladi (3-rasm).



3-rasm. Rambler qidiruv serverining ko'rinishi

Sahifada bugungi kunga qadar to'plangan turli sohaga oid ma'lumotlar bilan tanishish mumkin. Internetning bunday qidiruv tizimlari yordamida istalgan ma'lumotni tez va qisqa vaqt ichida topish mumkin. Faqat buning uchun sizni qiziqtirgan soha nomini tanlashingiz talab qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Qidiruv tizimlari nima?
2. Ularning imkoniyatlari, afzalliklari?
3. Qanday O'zbekiston qidiruv tizimlaridan foydalanasiz ?
4. Qanday Rossiya qidiruv tizimlarini bilasiz?
5. Qidiruv tizimlaridan qanday Internet dasturlarida foydalanish mumkin?

4 – LABORATORIYA Ishi

Mavzu: Internetda Elektron pochta tizimi

Kerakli texnik vositalar: Pentium-4 shaxsiy kompyuteri.

Kerakli dasturiy vositalar: Internet Explorer brauzer dasturi.

Ishning maqsadi: Talabalarga Internetda elektron pochta (E-mail) yangi shaxsiy adres ochish va undan foydalanishni o'rgatish.

Topshiriq:

1. Internet Explorer dasturiga kiring.
2. 3- Laboratoriya ishida berilgan variantlaringizga oid qidiruv serveriga kiring.
3. O'z shaxsiy elektron adresingizni oching.
4. Elektron adresingizdagi parolingizni saqlang va doimo yodda tuting.
5. O'z gruppadoshlaringiz bilan xat yozishing.
6. Laboratoriya ishni rasmiylashtiring.

Nazariy qism

Internet foydalanuvchiga juda ko'p turdagi informatsion xizmatlarni taqdim etadi. Shunday xizmatlardan biri **elektron pochta (E-mail)** xizmatidir. Elektron pochta (E-mail) maxsus dastur bo'lib, u yordamida foydalanuvchi dunyoning istalgan joyidagi elektron adresga xat, hujjat yoki ixtiyoriy faylni jo'natishi va qabul qilib olishi mumkin. Eng asosiysi xat manzilga bir zumda etib boradi. Lekin undan foydalanish uchun avvalambor foydalanuvchi maxsus pochta yoki Internet tarmog'iga bog'langan bo'lishi va shaxsiy elektron adresga ega bo'lishi lozim. Elektron adresni provayder beradi. Internetda biror server orqali, masalan, **www.mail.ru** da yangi elektron adres ochish tartibi amalga oshiriladi.

Elektron pochta yordamida (komputer orqali) dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga xat, hujjatlarni jo'natish va qabul qilib olish mumkin. Elektron pochta orqali xat jo'natish oddiy pochta xizmatiga qaraganda arzon va tez amalga oshiriladi. E-mail xabarlar odatda faqat matndan iborat bo'ladi, lekin unga grafik tasvir, audio va video fayllarni ham kiritish mumkin. Hozirda elektron pochta ko'plab dastur-mijozlari mavjud: Pine, mail, Eudora, Netscape va boshqalar. Pine elektron pochta ko'pgina oliy o'quv yurtlarida, turli tashkilotlarda o'rnatilgan bo'lib, u foydalanishda soddaligi va internetning ko'pgina xizmatlarida qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Lekin hozirda Windows

operatsion tizimida ishlash uchun ancha qulay bo'lgan maxsus dasturlar: MS Exchange, MS Outlook Express va boshqa elektron pochta tizimlari mavjud.

Internet yoki elektron pochta tarmog'iga ulangan har bir komputer o'zining alohida manziliga va har bir foydalanuvchi o'zining maxsus nomiga ega bo'lishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, bir foydalanuvchi bir nechta elektron manzilga ega bo'lishi mumkin bo'lsa-da, lekin bir manzil har xil foydalanuvchiga berilishi mumkin emas. Elektron manzilni provayder beradi. Elektron manzilning nomi @ belgisi bilan ajratilgan ikki qismdan iborat bo'ladi, ya'ni

`<pochta muallifi nomi>@<provayder nomi. davlat nomi>.`


Masalan:

Bahodir_sbh@rambler.ru,
lazizbek@list.ru.

Ishni bajarish tartibi:


1. Internetda biror server orqali, masalan, **www.mail.ru** da yangi elektron adres ochish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi.

Dastlab Internet Explorer dasturi ishga tushiriladi, hosil bo'lgan dastur oynasining adreslarni kiritish satriga klaviaturadan foydalanib **www.mail.ru** yozuvini kiritish kerak bo'ladi. Natijada 1–rasmdagidek oyna hosil bo'ladi.




1 –rasm. Mail.ru qidiruv serveri.

Oynaning **Registratsiya v pochte** bo'limiga sichqoncha chap tugmachasini bir marta bosgan holda murojaat etsak, quyidagi oyna paydo bo'ladi (2 –rasm).



2 –rasm.

Bu oynadagi **Nachat registratsiyu** tugmasini bosib, **Registratsiya** oynasini hosil qilamiz (3- rasm).



3- rasm

2. Endi bu oynadagi **E-mail** belgili satrga pochta muallifining nomi (yoki foydalanuvchining elektrton manzili) kiritiladi.

Navbatdagi **Пароль** belgili satrga yangi pochta uchun parolni kiritamiz va kiritilgan parolni **Подтверждение пароля** nomli satrga qayta yozib tasdiqlaymiz.

Ba'zan kiritilgan parolni unutib qo'yishimiz mumkin. Bunday holatda **Registratsiya** oynasining

» ЕСЛИ ВЫ ЗАБУДЕТЕ ПАРОЛЬ

sahifasidagi maxfiy savol–javoblar bo'limiga murojaat qilish zarur. Buning uchun avval doim esimizda turadigan biror savolni quyidagi

■ Выберите вопрос: - Выберите вопрос -

satrida joylashgan savollar ichidan tanlaymiz, agar maqbul savol mavjud bo'lmasa, u holda quyidagi

Или укажите свой
вопрос: день рождения

satrdagi yozuv maydoniga o'zimizni qiziqtirgan savolni kiritamiz. Har ikkala holda ham javobni keyingi

■ Ответ на вопрос: 4 май

javoblar maydoniga kiritamiz. Shundan keyin o'zimiz haqimizdagi qo'shimcha ma'lumotlarni (ismimiz, familiyamiz, tug'ilgan sanamiz va boshqalar) tegishli bo'limlarga 4–rasmdagi singari kiritamiz.

Регистрация - Microsoft Internet Explorer

Файл Правка Вид Избранное Сервис Справка

» ЕСЛИ ВЫ ЗАБУДЕТЕ ПАРОЛЬ

Обратите внимание на то, чтобы другим было бы трудно подобрать Вам было бы трудно его забыть. В случае правильного ответа на сек установить новый пароль

■ Выберите вопрос: - Выберите вопрос -

Или укажите свой
вопрос: день рождения

■ Ответ на вопрос: 4 май

Email адрес (если
есть):

Введите, пожалуйста, Ваш адрес электронной почты (если он у Вас е
Вами в данный момент. Мы будем использовать этот адрес, чтобы с
возникновения проблем с регистрируемым Вами в данный момент а
или Bk.Ru (например, если Вы забыли свой пароль).

» ДОПОЛНИТЕЛЬНАЯ ИНФОРМАЦИЯ О ПОЛЬЗОВАТЕЛЕ

■ Имя: Bakrom

■ Фамилия: Sayimov

■ Ваш день рождения: 04 / 1981


День в формате ДД, месяц выберите из списка, год в формате ГГГГ

■ Ваш пол: ☒ Мужской ☐ Женский

4 – rasm.


Shunday qilib, biz parolni mabodo unutib qo'ysak, yuqoridagi savollarga javobni aniq topgan holdagina pochtani ochishimiz mumkin. Aks holda elektron pochtani ocha olmaymiz.

Va nihoyat, joriy oynaning quyi qismidagi **Zashita ot avtomaticheskix registratsiy** bo'limida tasvirlangan olti xonali **qayd etish raqamini** klaviatura orqali bo'sh turgan (5-rasm)



5-rasm.

to'rtburchakli soha ichiga yozamiz va **Zaregistrirovat pochtoviy yashik** tugmasini bosib ishni tugallaymiz (6-rasm).



6-rasm.

Shunday qilib, agar yangi pochta ochish jarayonida barcha amallar to'g'ri bajarilgan bo'lsa, foydalanuvchining shaxsiy elektron manziliga ega bo'lganligi munosabati bilan administratorning maxsus tabriknomasi oynada nomayon bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Elektron adresning har bir elementini tavsiflang.
2. Elektron adres qanday ochiladi?
3. Elektron adres ochishda qaysi ko'rsatkichlarga e'tibor berish kerak?
4. O'z parolingiz esingizdan chiqib qolsa, bu vaziyatdan qanday chiqasiz?
5. Elektron pochtagizda xat o'qish qanday bajariladi?
6. Elektron pochtagizda xat jo'natish qanday bajariladi?

5 – LABORATORIYA ISHI

Mavzu: Internetda elektron pochta orqali tasvir, rasm, turli fayllar yuborish

Kerakli texnik vositalar: Pentium-4 shaxsiy kompyuteri.

Kerakli dasturiy vositalar: Internet Explorer brauzer dasturi.

Ishning maqsadi: Talabalarga Internetda elektron pochta (E-mail) orqali tasvir, rasm, musiqa, otkritka yuborishni o'rgatish.

Topshiriq:

1. Internet Exploler dasturiga kiring.
2. 3- Laboratoriya ishida berilgan variantlaringizga oid qidiruv serveriga kiring.
3. O'zbekistonda mavjud gidroyelektrostantsiyalar va ular faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarni ahamiyati to'g'risida ma'lumot izlang, o'z papkangizda saqlang.
4. Ma'lumotlaringizni www.inf-at@yandex.ru nomli elektron adresga xat orqali jo'nating.
5. Xatga Internetdan rasm, musiqa biriktiring.
6. Laboratoriya ishni rasmiylashtiring.

Nazariy qism


Elektron pochta yordamida (komputer orqali) dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga xat, hujjatlarni jo'natish va qabul qilib olish mumkin. Elektron pochta orqali xat jo'natish oddiy pochta xizmatiga qaraganda arzon va tez amalga oshiriladi. E-mail xabarlarini odatda faqat matndan iborat bo'ladi, lekin unga grafik tasvir, audio va video fayllarni ham kiritish mumkin. Hozirda elektron pochta dastur-mijozlari mavjud: Pine, mail, Eudora, Netscape va boshqalar. Pine elektron pochta dasturi ko'pgina oliy o'quv yurtlarida, turli

tashkilotlarda o'rnatilgan bo'lib, u foydalanishda soddaligi va internetning ko'pgina xizmatlarida qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Lekin hozirda Windows operatsion tizimida ishlash uchun ancha qulay bo'lgan maxsus dasturlar: MS Exchange, MS Outlook Express va boshqa elektron pochta tizimlari mavjud.

Internet yoki elektron pochta tarmog'iga ulandan har bir komputer o'zining alohida manziliga va har bir foydalanuvchi o'zining maxsus nomiga ega bo'lishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, bir foydalanuvchi bir nechta elektron manzilga ega bo'lishi mumkin bo'lsa-da, lekin bir manzil har xil foydalanuvchiga berilishi mumkin emas. Elektron manzilni provayder beradi. Elektron manzilning nomi @ belgisi bilan ajratilgan ikki qismdan iborat bo'ladi.


Ishni bajarish tartibi:

1. Elektron pochtaga kirish uchun pochta nomi va parolni kiritamiz. So'ngra **Voyti** tugmasini bosamiz (1-rasm).




1-rasm

Natijada elektron pochtaimizning 2-rasmdagi oynasi hosil bo'ladi.



2-rasm


2. Internetda xat yozish, jo'natish va kelib tushgan xat mazmuni bilan tanishish uchun **Napisat pismo** tugmasini bosamiz. Natijada bizga xat yozish uchun 3-rasmdagi ko'rinishda oyna hosil bo'ladi:



So'ngra ketma-ket quyidagilarni bajarish zarur:

- 21

3. Kelib tushgan xat mazmuni bilan tanishish uchun **Vhodyashiye** tugmasini bosamiz. Natijada pochtaimizga kelib tushgan xatlar ro'yxati hosil bo'ladi (4-rasm).




4-rasm

Yangi kelgan xatlar quyuqroq rang bilan alohida ajralib turadi. Agar o'sha xatni o'qimoqchi bo'lsak, uning ustida sichqoncha chap tugmasini bosganimizda, ekranda yangi kelgan xatning matni hosil bo'ladi. Matn bilan tanishib chiqqach, lozim bo'lsa, xatga javob yo'llashimiz mumkin.


4. Xatga qo'shib yuboriladigan har qanday ma'lumot qaysi dasturda tayyorlangan bo'lsa, shu dastur formatida jo'natilgani ma'qul. Masalan, hujjatlar Word, Excel yoki Paint dasturlarida tayyorlangan bo'lishi mumkin. Bunda hosil qilingan fayllarning hajmini ham hisobga olish zarur. Agar yuboriladigan axborotlar hajmi juda katta bo'lsa, u holda arxivator dasturlarning birortasi orqali fayl hajmini kichraytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, kerakli hujjatni tayyorlangan xatga ilova qilish uchun dastlab vositalar panelidan  tugmasini bosish lozim. Hosil bo'lgan **“Vstavka”** sarlavhali muloqot oynasidan kerakli faylni tanlab, oynadagi **“Vlojit”** buyrug'i ishlatiladi (5-rasm).



5-rasm

Natijada ilova qilinayotgan fayl nomi **“Prisoyedinit”** maydonida hosil bo’ladi (6-rasm).



6-rasm

Shundan so’ng xat odatdagidek kerakli manzilga jo’natiladi.

Nazorat savollari:

1. Elektron pochtni oddiy pochta xizmatidan farqi?
2. Qanday elektron pochta dasturlari mavjud?
3. Xatga qo’shimcha ma’lumotlar (rasm, otkritka, tasvir va x.k.) qanday biriktiriladi?
4. Xatga biriktirilgan qo’shimcha ma’lumotlar qanday o’qiladi?
5. **Bxodyashiye, Somnitelniye, Otpravlenniy, Chernoviki, Korzina** elementlarni vazifalarini ko’rsating.

6 – LABORATORIYA ISHI

Mavzu: Outlook Express dasturi yordamida Elektron pochta xizmatidan foydalanish

Kerakli texnik vositalar: Pentium-4 shaxsiy kompyuteri.

Kerakli dasturiy vositalar: Internet Explorer brauzer dasturi, Outlook Express dasturi.

Ishning maqsadi: Talabalarga Outlook Express dasturidan foydalanib, xat yozish, jo'natish va kelib tushgan xatlarni o'qishni o'rgatish .

Topshiriq:

1. Outlook Express dasturini ishga tushiring.
2. Rossiya, Qozoqiston, Tojikiston, Qirg'izistonda suv xo'jaligida zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llash xolati to'g'risida ma'lumot izlang va o'z papkangizda saqlang.
3. Papkangizdagi ma'lumotlaringizni www.inf-at@yandex.ru nomli elektron adresga xat orqali jo'nating.
4. O'z gruppadoshlaringiz bilan xat yozishing.
5. Kelib tushgan xatlarni o'qing.
6. Laboratoriya ishni rasmiylashtiring.

Nazariy qism


Elektron pochta yordamida (komputer orqali) dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga xat, hujjatlarni jo'natish va qabul qilib olish mumkin. Elektron pochta orqali xat jo'natish oddiy pochta xizmatiga qaraganda arzon va tez amalga oshiriladi. E-mail xabarlarini odatda faqat matndan iborat bo'ladi, lekin unga grafik tasvir, audio va video fayllarni ham kiritish mumkin.

Hozirda elektron pochta dastur-mijozlari mavjud: Pine, mail, Eudora, Netscape va boshqalar. Pine elektron pochta dasturi ko'pgina oliy o'quv

yurtlarida, turli tashkilotlarda o'rnatilgan bo'lib, u foydalanishda soddaligi va internetning ko'pgina xizmatlarida qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Lekin hozirda Windows operatsion tizimida ishlash uchun ancha qulay bo'lgan maxsus dasturlar: MS Exchange, MS Outlook Express va boshqa elektron pochta tizimlari mavjud. Internet yoki elektron pochta tarmog'iga ulangan har bir komputer o'zining alohida manziliga va har bir foydalanuvchi o'zining maxsus nomiga ega bo'lishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, bir foydalanuvchi bir nechta elektron manzilga ega bo'lishi mumkin bo'lsa-da, lekin bir manzil har xil foydalanuvchiga berilishi mumkin emas. Elektron manzilni provayder beradi.

Ishni bajarish tartibi:

1. Outlook Express dasturini ishga tushirish uchun boshqa amaliy dasturlar singari Windows asosiy menyusidan [Pusk]→[Programmi]→[Outlook Express] buyruqlar ketma-ketligini bajarish yoki Windowsning ish stolida joylashgan Outlook Express dastur  yorlig'i ustida sichqoncha chap tugmasi tez ikki marta bosiladi. Natijada Outlook Express dasturining quyidagi oynasi yuzaga keladi (1-rasm).




1-rasm. Outlook Express dasturi oynasi

2. Kelib tushgan xatlarni o'qish uchun dastur oynasining **Dostavit pochtu** punktida sichqoncha chap tugmasi bosiladi. Bunda kelgan xatlar serverdan

foydalanuvchi komputerga ko'chiriladi. Ekraning quyi qismida kelgan xatlar ro'yxati paydo bo'ladi. So'ngra **Vxodyashiye** bandi ochiladi. O'qilmagan xatlar ro'yxatda odatda qora rangda ko'rsatilgan bo'ladi. O'qilishi kerak bo'lgan xat tanlanadi va sichqoncha chap tugmasi bosiladi. Natijada xat mazmuni ekranda paydo bo'ladi.

3. Xat yozish uchun dastlab Outlook Express dasturi oynasining "Fayl" menyusidagi "Sozdat" bandiga yoki vositalar panelidagi  belgiga murojaat qilinadi. Hosil bo'lgan darchada quyidagi ishlar tartib bilan amalga oshiriladi:

- **Komu** maydonida xat jo'natilishi kerak bo'lgan elektron manzil nomi yoziladi, masalan: **anvar @ e-mail.ru**;
- **Kopiya** maydonida xatni bir nechta manzilga yuborish zarurati tug'ilganda xat nusxalari yuboriladigan manzillar yoziladi;
- **Tema** maydonida xat mavzusi ko'rsatiladi. Pastki katta oynada esa xatning mazmuni yoziladi (2-rasm).



2-rasm


4. Tayyorlangan xatni jo'natish uchun: 1) dastur oynasining **Otpavit** punktida sichqoncha chap tugmasi bosiladi; 2) xatning **Isxodyashiye** bandiga tushganligi tekshiriladi; 3) **Dostavit pochtu** punktida sichqoncha chap tugmasi bosiladi; 4) xatning **Isxodyashiye** bandidan **Otpavlennie** bandiga tushganligi tekshiriladi.

5. Xatga hujjat, rasm yoki turli fayllarni ilova qilish uchun xatga qo'shib yuboriladigan har qanday ma'lumot qaysi dastyrdan tayyorlangan bo'lsa, shu dastur

formatida jo'natilgani ma'qul. Masalan, hujjatlar Word, Excel yoki Paint dasturlarida tayyorlangan bo'lishi mumkin.


Bunda hosil qilingan fayllarning hajmini ham hisobga olish zarur. Agar yuboriladigan axborotlar hajmi juda katta bo'lsa, u holda arxivator dasturlarning birortasi orqali fayl hajmini kichraytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, kerakli hujjatni tayyorlangan xatga ilova qilish uchun dastlab vositalar panelidan  tugmasini bosish lozim. Hosil bo'lgan **“Vstavka”** sarlavhali muloqot oynasidan kerakli faylni tanlab, oynadagi **“Vlojit”** buyrug'i ishlatiladi (3-rasm).



3-rasm

Natijada ilova qilinayotgan fayl nomi **“Prisoyedinit”** maydonida hosil bo'ladi (4-rasm).



4-rasm

Shundan so'ng xat odatdagidek kerakli manzilga jo'natiladi.

Nazorat savollari:

1. Outlook Express dasturining ekran elementlarini tafsivlang.
2. Vositalar panelidagi elementlarni vazifalarini ko'rsating.
3. Outlook Express elektron pochta dasturida xat jo'natish qanday bajariladi?
4. Outlook Express dasturida xat o'qish qanday bajariladi?
5. Qo'shimcha ma'lumotlar (rasmlar, tasvirlar, otkritkalar, musiqa va b.) xatda qanday jo'natiladi?
6. Outlook Express elektron pochta dasturini boshqa elektron xizmat ko'rsatuvchi dasturlardan afzalligi.

7-LABORATORIYA ISHI**Mavzu: Masofaviy ta'lim olish usullari**

Kerakli texnik vositalar: Pentium-4 shaxsiy kompyuteri.

Kerakli dasturiy vositalar: Internet Explorer brauzer dasturi, www.intuit.ru sayti.

Ishning maqsadi: Talabalarga masofaviy ta'lim olish usullari va ko'rsatilgan sayt kurslarida o'qish qoidalarini bilan tanishtirish.

Topshiriq

1. Internet Explorer brauzer dasturiga kiring.
2. www.intuit.ru adresga kiring.
3. Ro'yxatdan o'ting (registratsiya).
4. O'z to'g'ringizda ma'lumotlar kiriting.
5. Variantingizga oid kurs tanlang.

Variantlar:

- 1) Informatika asoslari
- 2) EXM arxitekturasini
- 3) Microsoft Office dasturlari

- 4) Tarmoqda ishlash
 - 5) Intellektual tizimlar
 - 6) Internet-texnologiyalari
6. Kurslarda olgan ma'lumotlaringizni tahlil qilib, o'z papkangizda saqlang.
7. Laboratoriya ishini rasmiylashtiring.

Nazariy qism

Masofaviy ta'lim berish uslub asosida o'quvchilarni o'qitish hozirgi kunning eng rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchilar ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir. O'qituvchi va o'quvchining ma'lum bir masofada joylashganligi, o'qituvchinidan dars jarayonida kompyuterlar, sputnik aloqasi, kabel televideniyesi kabi vositalar asosida o'quv ishlarini tashkil qilishini talab qiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining tez rivojlanib borishi, ayniqsa, axborotlarni uzatish kanallarining rivojlanishi telekommunikatsiya sohasiga o'ziga xos tarixiy o'zgarishlar kiritmoqda. Mamlakatimizdagi barcha o'quv yurtlar va biznes bilan shug'ullanayotgan kompaniyalar masofaviy uslub asosida birlashtirilsa, o'qitish jarayoni va tijorat ishlari yanada yuqori pog'onalarga chiqadi.

Masofaviy o'qitish uslubining quyidagi afzalliklari mavjuddir:

a) o'qitishning ijodiy muhiti. Mavjud ko'pgina uslublar asosida o'qituvchi bilim beradi, o'quvchi esa faqat berilgan materialni o'qiydi. Taklif qilinayotgan masofaviy ta'lim berish asosida o'quvchilarning o'zlari kompyuterlar asosida axborotlar bankidan kerak bo'lgan malumotlarni qidirib topadi va albatta o'zlarining tajribalarini boshqalar bilan elektron tarmoqlari asosida almashadi. Bu esa o'quvchilarni boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo'lishini ta'minlaydi va o'z o'rnida bunday mehnat ta'lim olishni rag'batlantiradi.

b) mustaqil ta'lim olishning imkoniyati borligi. Masofaviy uslub asosida ta'lim olish – boshlang'ich, o'rta, universitet, sirtqi – kechki va malaka oshirish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Tayyorgarligi har xil darajada inspektorlar

o'zlarining shaxsiy dars jadvallari asosida ishlashlari mumkin va o'zining darajasidagi talabalar bilan muloqotda bo'lishi mumkin.


e) ish joyidagi katta o'zgarishlar. Masofaviy uslub asosida ta'lim berish turi millionlab insonlarga, ayniqsa ishlab chiqarishdan ajralmasdan ta'lim olayotganlar uchun qulay sharoit yaratib beradi. Bunday uslub asosida o'qitish kadrlarni tayyorlashda judayam katta rol o'ynamoqda, ya'ni jug'rofiy va moliyaviy qiyinchiliklarsiz o'zining ishlab turgan o'rnida ilm olish mumkindir.

z) o'qitish va ta'lim olishning yangi va unumli vositasi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, masofaviy uslub asosida ta'lim berish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish kabi unumlidir. Bundan tashqari, masofaviy uslub asosida ta'lim olish universitet tomonidan qo'yilgan chegaradan ham chetga chiqib ketadi. Bunday asosda ta'lim olayotgan talabalar yoki o'quvchilarning boshqalardan ustunligi – ularning eng yaxshi, sifatli materiallar va o'qituvchilar bilan ta'minlanishidir. Ta'lim berish va boshqarish uslubiyotiga asoslangan holda, o'qituvchi auditoriyada o'qitish shartlaridan holi bo'lishi kerakdir. Masofaviy uslub asosida o'qitishning o'quv qoidalaridan kelib chiqsak, o'quvchilar Internet orqali jahon bo'yicha sayohat qilishlari mumkin.

Hozirgi kunda to'g'ridan-to'g'ri Internet tarmog'iga kirish xizmati masofaviy uslub asosida ta'lim berish uchun elektron pochta, kompyuter konferentsiyalari va ma'lumotlarning elektron bazasidan foydalanadi. Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda masofaviy uslub asosida o'qitish jarayonining tashkil qilish sxemasi rasmda ko'rsatilgan.

Bajarish ketma-ketligi:

1. Internet Explorer dasturiga kirib, www.intuit.ru adresini adreslar qatoriga kiritiladi. Natijada ekranda 1-rasmdagi ish oynasi namoyon bo'ladi.




Рasm.1. Axborot texnologiyalari Internet universitetining bosh sahifasi.

2. **Zaregistriruytes** tugmachasini bosib, 2-rasmdagi bo'sh kataklarni o'z to'g'ringizdagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi.

Рasm 2. Ro'yxatdan o'tish oynasi.

Natijada, «Internet Universtitet Informatsionnix texnologiy» kursiga qabul qilingaligi to'g'risida 3-rasmda ko'rsatilgandek taklif namoyon bo'ladi. So'ng **Prodoljit** tugmachasi bosiladi va 4-rasmda ko'rsatilgandek kurslar ro'yxati chiqadi.




Rasm 3. Ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlovchi sahifa.



Rasm 4. Kurslar ro'yxati.

3. Ushbu kurslar ro'yxatidan variantingizga oid kursni tanlab ta'lim olishingiz mumkin. Misol uchun 5-rasmda Axborot texnologiyalari kursiga oid ma'lumotlar keltirilgan.



Рasm 5. Axborot texnologiyalari kursining sahifasi.

Barcha qo'shimcha ma'lumotlar ssilka ko'rinishida berilgan. Ularga kirib ta'lim olish, test va imtixonlarni topshirish qoidalari bilan tanishish mumkin. Ushbu saytga kiring va o'z bilimingizni oshiring.

Nazorat savollari:

1. Qanday masofaviy ta'lim olish sahifalarini bilasiz?
2. Masofaviy ta'lim deganda nimani tushinasiz?
3. Masofaviy ta'lim berish usullarini keltiring.
4. Masofaviy ta'lim olish imkoniyatlari.
5. Masofaviy ta'lim olish texnik vositalari.
6. Masofaviy ta'lim olish kamchiliklari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eshqobilov S.L. Internet - axborot qidiruvi.T. «Fan»,2006
2. Ro'zimov S.K. Kompyuter savodxonligi.T. «Fan», 2006
3. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Informationsion texnologiyalar. Darslik, T, 2006.
4. Aripov M.M. va b. Informatika. Axborot texnologiyalari. Toshkent, TGTU, 2002.
5. Gulomov S.S. va b. Iqtisodiy informatika. Toshkent. 1999.
6. Информатика. Под редакцией Н.В.Макаровой, «Финансы и статистика». 2002.
7. Ильина О.П., Информационные технологии. С.-Петербург, 2002.
8. Симонович С.И. и др., Специальная информатика, М., «АСТ-ПРЕСС КНИГА», 2002.
9. Компьютерные технологии обработки информации. Под ред.С.В.Назарова. М., Финансы и статистика.2001
- 10.Интернет с нуля. Под редакцией Н.Домина. М. Учебное пособие.2006

MUNDARIJA

Kirish	3
1. Kompyuter tarmoqlari. Lokal kompyuter tarmog'i	4
2. Internet Explorer brauzer dasturida ishlash	5
3. Internetda qidiruv tizimlaridan foydalanish	10
4. Internetda Elektron pochta tizimi	18
5 Internetda elektron pochta orqali tasvir, rasm, turli fayllar yuborish	19
6. Outlook Express dasturi yordamida Elektron pochta xizmatidan foydalanish	24
7. Masofaviy ta'lim olish usullari.	28
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	34

Karimova Xabibaxon Xamdamovna

Xodjayev Dadaxon Akmarxanovich

«Kompyuter tarmoqlari va Internet» fanidan
laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha

(METODIK KO'RSATMA)

Muharrir

Nurtoyeva M.

Musahhih

Boyzoqova D.

Bosishga ruhsat etildi _____ 2007y. Qog'oz o'lchami 60x84. Hajmi 2,2
bosma taboq. 50 nusha. Buyurtma _____. TIMI bosmoxonasida chop
etildi.

Toshkent – 700000, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy